

MUSIQIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

M.Abdusalimova

*Farg‘ona davlat universiteti
Magistr*

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqiy dunyoqarashning shakllanishi va uning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Dastlabki yunon faylasuflaridan tortib, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining musiqa o‘id qarashlari tahlil qilinadi. Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy kabi allomalarning musiqa haqidagi fikrlari, musiqa inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni, tarbiyaviy va estetik ahamiyati ochib beriladi. Maqolada maqomlar, tasavvufiy g‘oyalar va musiqa-falsafa uyg‘unligi ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: musiqa, dunyoqarash, Forobiy, Ibn Sino, maqom, tasavvuf, estetik tarbiya.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы формирования музыкального мировоззрения. Анализируются взгляды древнегреческих философов и мыслителей Центральной Азии на музыку. Раскрыты идеи таких учёных, как Фараби, Ибн Сина, Джамии и Навои, об эстетическом, воспитательном и духовном значении музыки. Также освещается связь между музыкальным искусством, суфийскими концепциями и философией.

Ключевые слова: музыка, мировоззрение, Фараби, Ибн Сина, маком, суфизм, эстетическое воспитание.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF MUSICAL WORLDVIEW

Annotation: *This article explores the scientific and theoretical foundations of the formation of a musical worldview. It analyzes the perspectives of ancient Greek philosophers and Central Asian scholars on music. The ideas of thinkers such as Farabi, Ibn Sina, Jami, and Navoi on the spiritual, educational, and aesthetic significance of music are examined. The article also discusses the role of maqoms, Sufi concepts, and the philosophical-musical synthesis.*

Keywords: *music, worldview, Farabi, Ibn Sina, maqom, Sufism, aesthetic education.*

Kirish. Musiqiy dunyoqarashning mazmun-mohiyatini ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy sharhlar va tadqiqotlar dastlab yunon olimlari – Pifagor, Platon, Aristotellar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik Markaziy Osiyo mutaffakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kavkabi, mutassavuf olimlar – Imom G‘azzoliy, Kalobodiy Buxoriylar musiqaning ilmiy-nazariy jihatlariga e’tibor qaratganlar.

Forobiy ham antik davr faylasuflari kabi musiqa ilmini matematika tarkibida o‘rganib, mazkur ilmning insonning mukammal bilimlarni egallashda tayyorgarlik vazifasini o‘tovchi boshlang‘ich bosqichda juda muhim o‘ringa ega ekanligini ta’kidlaydi.

Musiqa madaniyatining sharqona nazariy-amaliy asoslari va tarbiyaviy mohiyati Abu Nasr Forobiy tomonidan mufassal o‘rganilib, fan predmeti yaxlit tizimda tadqiq etildi. Uning musiqiy-ilmiy qarashlari 160 dan ortiq risolalarida keng yoritib berildi, “Kalomi fi- musiqiy” (“Musiqa haqida so‘z”), “Kitobi fi-n naqra muzofa ila-l ibqoh” (“Ritmga qo‘shimcha qilinadigan siljishlar haqida kitob”), “Kitobi al-musiqa al-Kabir” (“Musiqa haqida katta kitob”) kabi asarlarida bayon etib qoldirildi. Forobiy “Musiqa haqida katta kitob”ida musiqaning inson ruhiyatiga va ruhiy olamidagi ulkan ahamiyati haqida yozgan. Jumladan, musiqa kishilarni xursand qilishi, quvontirishi, tinchlantirishi, o‘ylantirib qo‘yishi, xotirjamlik baxsh etishi, sergaklantirishi va bir vaqtning o‘zida uxlatib qo‘yishi ham mumkinligi haqida o‘z fikrini bayon etgan.

Buyuk qomusiy olim, musiqa cholg‘ularini mohirlik bilan chalgan Abu Nasr Forobiy o‘z ijrosi bilan kishilarni quvontirish yoki qayg‘uga solish, ovutish yoki chuqur o‘y surishga majbur qilish, xursand qilish, hayratga solish va hatto uxlatib qo‘yishning uddasidan chiqa olganligi haqidagi hikoyat va rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Bu nima? Ijrochining mahoratimi? Shaxsiyat xususiyatlarining ta’sirimi? Musiqaning inson ongiga ta’sirimi? Professional musiqachi, mutaxassis musiqa madaniyatidagi bu va boshqa jihatlarni yetarli darajada o‘zlashtirib olishi kerak¹⁷⁴. Bu musiqiy tovushlar, obrazlar, tafakkur va hissiyotlar dunyosi kishi ruhini ko‘taradi, uni borliq bilan birlashtiradi, gohida tasavvurlar, xayollarning tushuntirib bo‘lmas imkoniyatlarini ochadi, dunyoning cheksiz kengligiga olib ketadi, haqiqatga, idealga yaqinlashtiradi, hayotimizni ma’noli, mazmunli, ma’naviy boy va go‘zal qiladi.

Forobiyning ilmiy izlanishlari an’ana tusini oldi va uning izdoshi, alloma Ibn Sino ijodida bevosita davom ettirildi. Inson ma’naviy qiyofasining shakllanishi va tarbiyalanishida, kerak bo‘lsa davolanishida qo‘llanuvchi muhim vositalaridan biri musiqadir, - deb hisobladi. Allomaning mazkur muammoga bevosita aloqador qimmatli mulohazalari uning “Jomeh ilm al musiqiy” asarida mujassam bo‘lgandir. Uning fikricha, musiqa ma’naviy kamollikka yetaklovchi vositalardan biridir, inson ma’naviy yetukligi esa – jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi qudratli kuch bo‘lib, alloma ta’limotida musiqaning inson ma’naviy qiyofasining shakllanishi bilan bog‘lab tahlil etilishi – fan predmetining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ham yoritib beradi.

O‘rta asrning buyuk mutafakkiri Ibn Sino ham “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining musiqa haqidagi bo‘limlari, musiqaning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta’sir ko‘rsatishi haqida aytib o‘tgan. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtayi nazardan o‘rgangan.

Abdurahmon Jomiy “Risoi musiqi”sida, shuningdek, interval oraliqlarining his etilishi, ularning melodik va garmonik tuzilishlari konsonans (yoqimli) va dissonans (yoqimsiz) bo‘lishlari haqida fikr yuritgan.

Kaykovus ham inson ruhiy tarbiyasida musiqaning o‘rnini yuqori baholaydi. “Musiqiy soz torlaridan yangraydigan ohanglar inson tabiatiga mos ravishda tanlangan va yaratilgan” deb fikr yuritiladi Sharq pedagogikasining durdona

¹⁷⁴ Мирхайдарова З.М. Жаҳон халқларининг музыка санъатининг ривожланиш жараёни. –Тошкент: Ўзбекистон давлат консерваторияси. 2009. –Б. 53.

asarlaridan biri “Qobusnoma”¹⁷⁵da. Uning muallifi Kaykovus inson va uning kamol topishi, ta’lim -tarbiya muammolariga bo’lgan qarashlarini bayon etib, tarbiyadan maqsad – insonni hozirgi zamon va kelajak uchun yaroqli shaxslar qilib yetishtirishdir, - deb ta’kidlaydi.

Markaziy Osiyo allomalari orasida Kaykovus singari san’atkorlarni ma’naviyat tarqatuvchilari sifatida ijtimoiy hayotdagi o’rnini juda obektiv tahlil etib, musiqiy-didaktik meros qoldirgan mutafakkir alloma, buyuk o’zbek adibi, san’at shaydosi Alisher Navoiyning musiqiy qarashlari asosan uning “Mahbub ul-qulub”, “Majolis ul-nafois” asarlarida mujassam bo’lgan. Jumladan, “Mahbub ul-qulub” nasriy risolasida alloma musiqaning ilmiyligini e’tirof etgan holda uni ko’proq ma’naviy ozuqa beruvchi san’at turi sifatida didaktik tarzda talqin qildi¹⁷⁶. Navoiy musiqaning ta’sirchanligi va shu orqali tarbiyaviyligi – san’atkorlarning aql-idroki va ijrochilik salohiyati bilan bog’liq, - deb hisobladi. Musiqaning badiiy mazmunini moddiylikda tinglovchiga uzatib beruvchi vositalar sifatida musiqiy sozlarning o’ziga xos tabiatini mahorat bilan ta’riflab beradi¹⁷⁷.

Sharqning buyuk musiqashunosi Abdulqodir Marog’iy dastlab Bog’dod saroyida xizmat qilgan. Bog’dod Amir Temur tomonidan bo’ysundirilgach, u Samarqandda Temur saroyida, so’ngra Hirotida Shohruh saroyida ilmiy-ijodiy faoliyat ko’rsatgan. Abdulqodir Marog’iy Sharq musiqasining yetuk bilimdoni sifatida “Kuylar xazinasini”, “Taronalar to’plami”, “Kuylar haqida kitob” kabi asarlarni yaratgan¹⁷⁸. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, Turkiston hududi Sharq mumtoz musiqa madaniyati shakllangan va rivojlangan markazlardan biri sanaladi. Biroq asrlar davomida o’zbek xalqi ma’naviy merosining asosiga aylangan milliy va mumtoz musiqa madaniyati sobiq ittifoq mustamlakachilik tazyiqlarini boshdan kechiradi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo mutaffakirlari va olimlarining ilmiy merosida musiqa ilmi jamiyat va uning a’zolari ijtimoiy tafakkurida katta o’zgarishlarni amalga oshiruvchi omil sifatida talqin etildi. Bundan tashqari, agar qomusiy allomalar musiqa ilmini Matematika tarkibida o’rgangan bo’lsalar, uy g’onish davrining

¹⁷⁵ Қаранг: Кайкавус. Қобуснома. Нашрга тайёрловчи: Долимов С., Долимов У. –Тошкент: Ўқитувчи нашриёти. НМИУ. 2006.

¹⁷⁶ Навоий А. Махбуб ул-қулуб. –Тошкент: Ғофур Ғулом нашриёти. 1983. –Б. 111.

¹⁷⁷ Қаранг: Баймухамедова Н. Алишер Навоӣ о музыке. История и современность. Проблемы музыкальной культуры народов Узбекистана, Туркмении и Таджикистана. –Москва: Музыка. 1972.

¹⁷⁸ Йўлдашева С.Х. Ўзбекистонда мусиқа тарбияси ва таълимнинг ривожланиши. –Тошкент: Ўқитувчи. 1985. – Б. 13.

so‘nggi asrlarida musiqa ilmi mustaqil fan sifatida taraqqiy etdi. Uyg‘onish davrida musiqa ilmi tarkiban ilmu iyqoh, ilmu tahlif (al-musiqa al-nazariyya) va bastakorlik hamda ijrochilik san‘ati (al-musiqa al-amaliyya)ni qamrab olgan bo‘lib, bu sohalarining har biri o‘ziga xos uslubiy yondashuvda mukammal darajada tadqiq etildi.

Markaziy Osiyo musiqa madaniyatiga oid asarlar mazmuniga badiiy g‘oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o‘zaro munosabatlari, ya‘ni taqqoslash, to‘qnashuv, rivojlanish jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko‘ra musiqa mazmuni ham turli epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo‘ladi. Musiqa shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qadriyatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda mazlum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur‘at, ijtimoiy fikr va kechinmalari to‘g‘risidagi umumlashmalar ifoda etiladi. Musiqiy madaniyat har bir davrning ma‘naviy-ma‘rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko‘pgina jabhalari bilan mushtarakdir. Musiqiy madaniyat, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg‘ularini rivojlantirish vositasi sifatidagi roli juda muhimdir.

XX-XXI asr boshigacha bo‘lgan davrda musiqa madaniyatida beqiyos rivojlanish, katta yutuqlar, misli ko‘rilmagan yuksalish davri bo‘ldi. Turli xalqlarning har bir tarixiy bosqichida ajdodlari tomonidan yaratilgan va vorisiylik asosida yetib kelgan barcha moddiy va ma‘naviy boyliklar milliy qadriyat sifatida e‘zozlanib keldi. Milliy musiqa madaniyatida milliy qadriyatga aylangan asarlar talaygina. Ularni afsona va rivoyatlar orqali ham bilish mumkin. Afsonalardagi pay g‘ambarlarning so‘z bilan yetkazish qiyin bo‘lgan tuyg‘ularini musiqa orqali ifodalash imkoniyatlari namoyon bo‘ladi¹⁷⁹.

Rivoyatlarga ko‘ra dastlab bunyod bo‘lgan 12 maqom 12 payg‘ambar qissasi sifatida tilga olingan. Maqomlarda tasavvuf g‘oyalari keng namoyon bo‘lgan, chunki maqomot jadal shakllanayotgan XIII-XVII asrlarda tasavvuf ta‘lim oti islom olamida keng yoyilgan va badiiy ijodning deyarli barcha turlariga katta ta‘sir ko‘rsatgan edi. U ta‘limotga ko‘ra inson pok va ma‘naviy yetuk bo‘lib Haqiqatga, Ollohga yetish uchun “tariqat”, boshqachasiga “suluk” yo‘lini bosib o‘tmog‘i lozim. Bu yo‘lda yettita pog‘ona yoki to‘xtash joyi bor. Bularni arab tilida “maqom” deytilar. Shuni ta‘kidlash joizki, “komil inson” ta‘limoti zamonaviy maqom

¹⁷⁹ Кароматов Ф. Музыка народов Ср. Азии в мифах и легендах. Санъат № 2 / 99. –С. 48.

namunalari mazmunida ham muhim o‘rin tutadi. Maqomlar masalasi qadimdan musiqashunos va bastakorlarni qiziqtirib kelgan.

XVII asrdan boshlab yaratilgan musiqiy asarlarda biror hodisani tasvirlashda o‘ziga xos mantiq, dramaturgik elementlar, insonda bir vaqtning o‘zida nafaqat shodlik, balki ma’yuslik kayfiyatlarni paydo qilishga harakat ko‘zga tashlanadi. Musiqa san’atning bir turi sifatida e’tirof etilishida cholg‘uning yuqori shakllari – sonata, kontsert, simfoniya kabi turlari tobora rivoj topib, insonlarni hayot mazmuni to‘g‘risida falsafiy fikrlashga undashi muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shuning uchun ham, o‘sha davrlardan to hanzugacha musiqachi va faylasuflar musiqaning sirli ohanglari qanday qilib murakkab g‘oyalar va kontsepsiyalarni ifoda etishiga qodirligi haqida bosh qotiradilar. Masalan, I.Kant uchun musiqa his-tuyg‘ularning nozik o‘yini bo‘lib, kishi kayfiyatiga turli darajada ta’sir qiluvchi voqea xolos. Shuning uchun u musiqani san’at sohalari orasida past o‘ringa qo‘yadi¹⁸⁰. V.Gegel musiqani go‘zallikni his qilishda ma’lum bosqich deb biladi. Uning aytishicha, haykaltaroshlik me’morlikning ajralmas qismi bo‘lganidek, musiqa ham biron-bir tasvirni tovush orqali “chizadi”. A.Shopengauer musiqa odamni o‘ziga mahliyo qilib tinchlantiradi yoki ko‘ngilni ochadi, lekin boshqa san’atlarda bo‘lgani kabi unda g‘oya yo‘q, deb hisoblaydi¹⁸¹. M.Veberning aytishicha, muhabbat insonlarga qanchalik kerak bo‘lsa, musiqa ham shunchalik kerak.

Akademik S.Shermuhammedovning yozishicha, inson badiiy-estetik faoliyat ko‘rsatish natijasida beqiyos go‘zalliklarni, shuningdek, adabiyot va san’at asarlarini vujudga keltiradi. “Olamni badiiy-estetik idrok etishning turli shakllari, ko‘rinishlari ijodkorning, jamiyat yoki davrning ijobiy yoki salbiy idealini aks ettirish uslublariga, uning niyat, maqsadlariga bog‘liqdir. Adabiyot va san’atning, butun badiiy madaniyatning rivojlanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijodkor ideali asar mazmunida qanchalik umuminsoniy ko‘lamlarda, qanchalik yorqin individuallashgan – jonli, betakror obrazlarda gavdalangan bo‘lsa, badiiy-estetik, axloqi-ma’naviy jihatdan yuksak bo‘lsa, jahon madaniyati xazinasiga shunchalik ulkan hissa bo‘lib qo‘shiladi”¹⁸².

¹⁸⁰ Кант И. Критика способности суждения. Музыкальная эстетика Германии XIX века. Т. 1. Москва: 1982. – С.78.

¹⁸¹ Шопенгауэр А. Свобода воли и нравственность. –Москва: Республика. 1992. –С. 57.

¹⁸² Шермухамедов С. Фалсафа ва ижтимоий тараққиёт. –Тошкент: Фан. 2005. –Б. 42-43

1854 -yilda Eduard Ganslikning “Musiqiy go‘zallik to‘g‘risida” nomli risolasida “Musiqaning o‘zi nima?” degan savol emas, “Musika nimani ifodalaydi”? - degan savol o‘rtaga tashlanadi. Bu davrda affektlar nazariyasiga zamin tug‘ilib, musiqa qanday affektlarni hosil qilishi mumkinligi to‘g‘risida fikrlar vujudga kela boshladi. Ganslik fikricha, musiqaning mustaqil mazmuni yo‘q. Musiqaning mazmuni-harakatdagi musiqiy shakllardan iborat. Shu sababli Ganslikni formalizm g‘oyasini ilgari suruvchi musiqashunos deya e‘tirof qilishadi. chunki musiqiy asarlarning turi va yo‘nalishi shunchalik ko‘payib ketganki, ular biror bir predmet yoki hodisani ifoda etmasdan, musiqiy tovushlar yig‘indisiga aylanib qolgan. Zamonaviy jarayondagi ba’zi musiqalarning “texnologik” shakllari shundayki, ular qadriyatlar, musiqiy ong va ifoda usullarini o‘zgacha talqin qiladilar.

Buyuk musiqachilar – Motsart, Betxoven, Shopen, List, Chaykovskiy, Rimskiy-Korsakov, Raxmaninov, Skryabin, Toskanini, Churlyonis, O‘zbek musiqa ijrochilari, bastakor va kompozitorlari – Yunus Rajabiy, Mutal Burxonov, Mirsodiq Tojiev va boshqalar hayotidagi misollar musiqa yaratish, ijro etish va tinglash jarayonida inson qanday ma‘naviy-ruhiy xususiyatlarga, hayratlanarli imkoniyatlarga egaligini yaqqol ko‘rsatadi. Mana, ayrim misollar: Yunus Rajabiy o‘zining ko‘p jildlik “O‘zbek xalq musiqasi”, “Shashmaqom” to‘plamlaridagi deyarli barcha qo‘shiq va kuylarni yoddan yozgan. Mirsodiq Tojiev ajoyib simfoniyachi kompozitor bo‘lgan, shu bilan bir qatorda u xalq kuylari va mumtoz musiqani puxta o‘zlashtirgan. U juda ko‘p maqom yo‘llarini yoddan bilgan.

XIX asrning o‘rtalarigacha musiqa madaniyati haqidagi qarashlar ko‘proq nazariy ko‘rinishga ega bo‘lgan. Faktlarga asoslangan qarashlardan birinchisi Gerbert Speneerning nazariyasi edi. Uning fikricha, musiqiy amaliyotning birlamchi shakli – odamning nag‘masi edi. Nag‘ma esa tovush chiqarib so‘zlash, intonatsiya va aktsentlaridan kelib chiqqan. Ovozni balandlatish yoki pasaytirish, so‘zlashni tezlatish yoki sekinlatish musiqiy ifodaning asosidir. Bu qarash bir tomonlama qarash edi. Chunki hayvonlar ham har xil holatda turli balandlikdagi tovushlarni chiqarishadi, ammo ulardan farqli ravishda insonning musiqiy ijodi, sodda bo‘lishiga qaramay, onglidir. Bundan tashqari bu qarash musiqaning keyingi rivojini tushuntirib bera olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy, A. “Musika ilmi haqida” / “Kitob al-Musiqal-Kabir”. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Ibn Sino, A. “Shifo kitobi”dan musiqa bo‘limi. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Jomiy, A. “Risolai Musiqal” – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1985.
4. Alisher Navoiy. “Mahbubul qulub”, “Xazoyinul Maoniy”. – Toshkent: Fan, 1997.
5. Usmonov, A. “O‘zbek musiqa merosi”. – Toshkent: Fan, 2002.
6. Ismatillaeva, G. “Musiqal va estetik tarbiya”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
7. Abdurashidov, A. “Sharq falsafasida san‘at va musiqa”. – Samarqand: Zarafshon, 2015.
8. Halmuhamedov, R. “Tasavvuf va musiqa: Maqomlar mohiyati”. – Buxoro, 2018.
9. Xudoyberganov, M. “O‘zbek mumtoz musiqa merosi”. – Toshkent: San‘at, 2012.
10. Юнусова Х.К. “Музыкальная культура Средней Азии”. – Москва: Восточная литература, 2003.